“Fan va turmush” jurnalining mustaqilligimizning 30 yilligiga bag’ishlangan soni nashr etildi

“Fan va turmush” jurnalining 2021-yilgi 1-2 qo’shma soni chop etildi. Jurnalning bu soni respublikamiz mustaqilligining 30 yilligiga bag’ishlanadi.

Jurnalning sahifalari “Buyuk ish ezgulikka yo’l ochadi” nomli maqola bilan boshlanadi. Unda Prezidentimiz

Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va bevosita boshchiligida amalga oshirilayotgan eng muhim islohotlar xalqimizning yashash va mehnat sharoitlarini tubdan yaxshilash, ularni ish bilan ta’minlash, shunga munosib daromad olishiga qaratilgan. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar orasida eng muhimlaridan biri – “Obod qishloq” dasturidir. Ushbu dasturning maqsadi chekka qishloqlarda, og’ir sharoitlarda yashab kelayotgan minglab fuqarolarimizni toza ichimlik suvi bilan va ehtiyojiga yarasha uy-joy va ish bilan hamda munosib tibbiy xizmat bilan ta’minlash, hordiq chiqarishlari uchun bog’u hiyobonlar barpo etish, ularning farzandlariga musiqa va sport inshootlari bilan jihozlangan maktablarda o’qish imkonini yaratish kabi ko’plab xayrli ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Ana shunday chekka joylardan biri bo’lmish Jizzax viloyatining Mirzacho’l tumanidagi Gagarin shahrida amalga oshirilgan ishlar.

Prezidentimizning tashabbusi nafaqat o’zimizning vatandoshlarimizni balki chet el fuqarolarini ham befarq qoldirmadi. So’nggi uch yil davomida Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi Mudofaa qo’mitasi raisi, “gagarinlik” Vladimir Shamanov O’zbekistonga uch marta tashrif buyurdi. Vladimir Shamanov bilan Gagarin shahriga tashrif buyurgan va katta o’zgarishlarni o’z ko’zi bilan ko’rgan vatandosh kosmonavtlarimiz Vladimir Djanibekov va Solijon Sharipovlar bu yerda Kosmonavtika muzeyini barpo etishni taklif qilishgan.

Ushbu tashabbus O’zbekiston Prezidenti tomonidan qo’llab-quvvatlandi va Kosmonavtika muzeyini barpo etish 2021-yil aprelda, sayyoramizning birinchi kosmonavti Yuriy Alekseevich Gagarin parvozining 60 yilligini nishonlash kuni arafasida yakunlandi.

Muzeyning ochilish marosimiga Vladimir Shamanov boshchiligidagi Rossiya Qahramonlari uyushmasi va kosmik sohaning yirik namoyondalari tarkibidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Delegatsiya a’zolari orasida Rossiya Federatsiyasi qahramonlari – kosmonavt-uchuvchilar Vladimir Djanibekov, Sergey Krikalyov va Solijon Sharipovlar ham bor edi.

Sayyoramizning birinchi kosmonavti nomini olgan shahardagi bu muzey O’zbekistondagi kosmonavtikaga bag’ishlangan birinchi muzey bo’ldi. Uning eksponatlarida vatandoshlarimiz, olim va muhandis-konstruktorlarimizning ushbu muhim soha rivojiga qo’shgan hissasi aks ettirilgan.

Jurnalning ushbu soni 72 betdan iborat bo’lib, u juda qiziqarli maqolalar bilan yoritilgan va ko’plab noyob foto suratlar bilan bezatilgan.